

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.12.2025.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

QUVVATOV RAHMATULLO HIKMATULLAYEVICH

**FAN VA SAN'ATGA OID AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA
TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology**

Quvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich

Fan va san'atga oid aforizmlarning chog'ishtirma tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari
misolida).....3

Quvvatov Rahmatullo Hikmatullayevich

Comparative study of aphorisms related to science and art (on the example of
english and uzbek languages)25

Кувватов Рахматулло Хикматуллаевич

Сравнительное исследование афоризмов, связанных с наукой и искусством
(на примере английского и узбекского
языков).....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications60

**TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.12.2025.Fil.13.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

QUVVATOV RAHMATULLO HIKMATULLAYEVICH

**FAN VA SAN'ATGA OID AFORIZMLARNING CHOG'ISHTIRMA
TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

10.00.13 – Qiyosiy va chog'ishtirma tilshunoslik

**FILOLOGIYA fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Fil7147 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tues.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muratxodjayeva Feruzaxon Xotamovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponenlar:

Bakirov Poyon Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Sherzod Xalikulovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti huzuridagi hD.03/27.12.2026.Fil.13.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «29» 08 soat 14 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz iqtisodiyot va servis universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (10 -raqami bilan ro'yxatga olingan) Manzil: 190111, Termiz shahri, Termiz shahri, "Yulduz" mahallasi, "Ibn Sino" ko'chasi 38-B uy Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «17» 08 kuni tarqatildi.

(2026-yil «17» 08 dagi 10 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



O.P.Uralova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, dotsent

Z.R.Narmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

N.X.Mamataliyeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida aforizmlar paremiologiya, frazeologiya, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalingvistika, diskurs tahlili hamda tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ham keng tadqiqotlar amalga oshirilgan. Fan va san'atga oid aforizmlar ijodiy dunyoqarash va milliy madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi til birliklari hisoblanadi. Xorijiy olimlar tomonidan aforizmlarning semantik tuzilishi, konseptual mazmuni, metaforik xususiyatlari, kommunikativ vazifalari hamda madaniyatlararo tarjima muammolari bo'yicha ko'plab ilmiy manbalar yaratilgan. Shunga qaramay, fan va san'at konseptlarini ifodalovchi aforizmlarni ingliz va o'zbek tillari kesimida kompleks qiyosiy tahlil amalga oshirib, ularning lingvomadaniy qiymati, qiyosiy elektron korpusini yaratish dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yo'nalishlarda amaliy ishlarni kuchaytirish muhim hisoblanadi. Fan hamda san'atga oid aforizmlarning qiyosiy elektron korpusini yaratish va ularni semantik hamda lingvomadaniy mezonlar asosida tizimlashtirish va aforizmlarning konseptual mazmunini kognitiv, pragmatik va lingvomadaniy yondashuvlar dolzarb hisoblanadi. Fan va san'atga oid aforizmlarning chog'ishtirma tadqiqi lingvomadaniyatshunoslik, korpus lingvistikasi hamda zamonaviy raqamli til texnologiyalarini takomillashtirishga muhim amaliy hissa qo'shadi.

Dunyo tilshunosligida aforizmlarni tadqiq etishda kognitiv-semantik tahlil, lingvomadaniy yondashuv, konseptologik tadqiqotlar, korpus lingvistikasi, pragmatik tahlil hamda madaniyatlararo kommunikatsiya ustuvor ilmiy yo'nalishlar sifatida e'tirof etilmoqda. Bundan tashqari, aforizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish, ularning tarjima ekvivalentlarini aniqlash, elektron korpuslar yaratish hamda sun'iy intellekt asosida aforizmlarni avtomatik aniqlash va tahlil qilish bo'yicha tadqiqotlar ilmiy hamjamiyat e'tiborida bo'lgan dolzarb yo'nalishlar hisoblanadi. Aforizmlarning diskursdagi funksiyasi, kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, zamonaviy media va raqamli kommunikatsiyadagi qo'llanilishi hamda ularning til va tafakkur rivojiga ta'sirini o'rganish istiqbolli ilmiy tadqiqot yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda tilshunoslik, tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik sohalarini rivojlantirish, xorijiy tillarni chuqur o'rganish hamda ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Aforizmlarning qiyosiy elektron korpusini yaratish, ularning semantik, pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlarini kompleks tahlil qilish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. "Xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyat"¹ larimizni noqardosh tillar bilan qiyosiy-chog'ishtirilib o'rganishda aforizmlarning ikki tilli izohli lug'atlarini yaratish, sun'iy intellekt va korpus

¹<https://uza.uz> Prezident Shavkat Mirziyoevning o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// "O'zbekiston ovozi" gazetasi. 21.10.2019.

lingvistikasi texnologiyalarini tadqiqotlarga joriy etish, olingan natijalarni tarjimashunoslik, xorijiy tillarni o'qitish va madaniyatlararo kommunikatsiya amaliyotida qo'llash ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb yo'nalishlardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining

I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida V.A.Avrarin, O.A.Dmitriyeva, Y.V.Zemlyanskaya, L.Van, T.M.Kizlargul, T.V.Sazbandyan, N.G.Dyadk, Y.S.Konovalova, A.V.Eremenko, E.Y.Niktovenko² kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida aforizmlarning ma'naviy va lingvistik tabiati, uslubiy xususiyatlari, hamda ularni boshqa tillardagi turdosh aforizmlar bilan qiyosiy o'rganilish orqali bu yo'nalishdagi ishlar yangi bosqichga chiqqan.

² Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Л.: Наука, 1975. – 58с.; Дмитриева О.А. Культурно – языковые характеристики пословиц и афоризмов на материале французского и русского языков; дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 189 с.; Землянская Е.В. Структурно-семантические и функциональные особенности стилевой интертекстуальности в англоязычном афоризме: дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004. – 209 с.; Ван Л. Композиционно-синтаксическая организация русских афоризмов второй половины XIX века: дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 157 с.; Кизларгуль Т.М. Русские антиномичные афоризмы: рече-языковые аспекты конфликтности и парадоксальности: дисс. .. доктор филологических наук. – Краснодар, 2007. – 415 с.; Сазбандян Т.В. Функции афоризмов в структуре и динамике познавательной деятельности человека. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 143 с.; Дядык Н.Г. Гносеологический анализ афоризма как специфической семиотической системы: дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2011. – 189 с.; Коновалова Ю.С. Фразеологизмы, паремии и афоризмы как средство объективации возрастных концептов в англоамериканской языковой картине мира: дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 321 с.; Еременко А.В. Языковая Объективация Цениостного Компонента Концепта Marriage в Афоризмах Американских И Британских Авторы (Сравнительно-Сопоставительный Аспект): дисс. ...канд. филол. наук. – Владивосток, 2012. – 221.; Никтовенко Е.Ю. Семантика конфликтсодержащих паремий и афоризмов в лингвокогнитивном и лингвокультурном аспектах (на материале русского и английского языков): дисс. ...канд. филол. наук. Нальчик, 2015. – 185 с.

Ingliz tilshunosligida M. Robert, Jakob Kets, Robert Farli, A.Taylor, Auden and K.Lous, A.Jon, William Lilly³ kabi olimlar aforizimlarni paremiologik birlik sifatida tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida M.Fozilov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, Z.D.Toshpo'latov, P.U.Bakirov, X.Tursunov, M.X.Saidov, Z.T.Tohirov, A.Raimov, N.Raimova, Sh.Nosirov, S.Jo'rayev, N.Toshqulov, Sh.Tojiboyev, R.Egamberdiyev, Z.I.Mirzayunusova, L.V.Polovina, O.P.Uralova, Z.R.Narmuratov, N.Mamataliyeva⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida aforizmlarning shakllanish bosqichlari, lingvistik tabiati, yondosh hodisalarga bo'lgan munosabati, tadqiqot usuli kabi paremiologiyani turli masalalariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Tilning leksik – semantik tizimini chog'ishtirma tipologik o'rganishning dolzarb muammolari: diaxroniya va sinxroniya" (ITA-12-09-2019) mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at leksikasi asosida shakllangan aforizmlarning semantik, strukturaviy xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hikmatli so'zlarni paremiologik birlik sifatida tadqiq etib, ularning yondosh birliklarga bo'lgan munosabatini ilmiy-nazariy jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at leksikasining tarixiy-tadrijiy

³Robert M. Book of aphorisms. Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – 189 p.; Jacob Cats and Robert Farlie Moral Emblems with aphorisms, adages, and proverbs, of all ages and nations. London: longman, green, longman, and roberts, 1860. – 262 p.; Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia, 1975. – 130 p.; Auden and Louis K. The viking book of aphorisms. London, The Viking Press, 1981. – 417 p.; John A. A Book of Aphorisms. London, 2017. – 127 p.; William Lilly. Choice aphorisms from the seven segments of cardan" published by Global Grey, 2018. – 336 p.

⁴Хикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. Тузувчи: М.Фозилов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – 191 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 1.– Тошкент, "Фан", 1987. – 368 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 2. – Тошкент, "Фан", 1988. – 372 б.; Саидов М.Х., Тохиров З.Т. Комиллик ўғитлари. – Тошкент: Молия нашриёти, 2003. – 96 б.; Тошпўлатов З.Д. Афоризмларнинг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фанлари номзоди дисс. Тошкент, 2006. – 122 с.; Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.; Х.Турсунов "Французча-ўзбекча афоризмлар луғати. Наманган: 2014. – 45 б.; А.Раимов ва Н.Раимова. "Хикматлар шодаси" Тошкент: "Ўзбекистон", 2013. – 400 б.; Носиров Ш. Афоризмлар. – Тошкент: "Камалак", 2015, 48 б.; Жўраев С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 400 б.; Тошқулов Н. "Хикмат ва мақолларда одоб меваси" Тошкент, Адабиёт учкуни, 2017. – 48 б.; Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Мирзаюнусова З.И., Половина Л.В. Талаба-ёшларда меҳнатсеварлик туйғуларини шакллантиришда афоризмлардан фойдаланиш. 2019. – 68 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида "оила" бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида таълим ва илм концептларига оид паремаларнинг лингвимаданий тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Термиз, 2022. – 129 б.; Нармуратов З.Р. Таълим, илм ҳикматлари. Термиз давлат университети, НММ нашриёти, Термиз - 2022, – 89 б.; Mamataliyeva N.X. Ingliz va o'zbek tillarida "vatan" mazmunli aforizmlarning semantikasi va strukturasi. Filol.fanlari falsafa doktori diss. – Termiz, 2023. – 128 b.

rivojlanish tushunchalarining mazmunini ilmiy adabiyotlar tahlili orqali ochib berish;

chog'ishtirilayotgan tillarda fan va san'at konseptli hikmatli so'zlarning semantik maydonini aniqlash;

fan va san'at konseptli aforizmlarni chog'ishtirish orqali ularning tuzilish jihatdan farqli va o'xshash tomonlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at konseptli hikmatli so'zlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at konseptli aforizmlarning semantik-struktur xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda leksik-semantik, qiyosiy-chog'ishtirma, tasniflash, struktur va statistik, analitik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tilshunosligida aforizmlarning maqol va matallardan farqli jihatlarini mualliflik xarakteriga ega bo'lishi, muayyan shaxsning ilmiy, falsafiy yoki estetik qarashlarini ixcham shaklda ifodalashi bilan ajralib turishi, aforizmlar, maqollar kabi umumlashgan hayotiy tajribani ifodalashi, matallar singari obrazli va ko'chma ma'noga ega ekanligi aniqlangan;

o'zbek tili aforizmlarida ma'naviyat, odob, ustozga hurmat kabi qadriyatlar ko'proq aks etsa, ingliz tili aforizmlarida individual tajriba, erkin fikrlash, ijodkorlik va shaxsiy rivojlanish tushunchalari faolroq ifodalanishi isbotlangan;

sodda gap shaklidagi aforizmlarda ularning yig'iq va yoyiq, to'liq va to'liqsiz, uyushiq bo'lakli gap shakllarida keng qo'llanishi hamda yig'iq gap shaklidagi aforizmlar fikrning qisqaligi va lo'ndaligini ta'minlasa, yoyiq gap shaklidagi aforizmlar murakkabroq konseptual mazmunni ifodalash imkonini berishi qatorida uyushiq bo'lakli gap shaklidagi aforizmlarda esa semantik parallelizm, taqqoslash va ta'sirchanlik kuchli namoyon bo'lishi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at leksikasi asosida shakllangan aforizmlar ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, ular semantik, lingvomadaniy va sintaktik jihatdan murakkab tizimni tashkil etishi, aforizmlarning shakliy tuzilishi va mazmuniy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifasi inson bilimini, estetik qarashlarini va hayotiy tajribasini qisqa, lo'nda hamda ta'sirchan shaklda ifodalanishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at konseptli aforizmlar semantikasi va lingvomadaniyat bilan bog'liq bo'lgan tomonlari hamda o'ziga xos xususiyatlarining chog'ishtirma tahlili ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etishi, "Tilshunoslik", "Leksikologiya", "Uslubiyat", "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Qiyosiy tipologiya", "Lingvomadaniyatshunoslik" kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga yordam berishi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at konseptli aforizmlar semantikasi va lingvomadaniyatini tahlil qilish uchun ishlab chiqilgan metodikaning qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga xos boshqa tipdagi paremalarni tadqiq qilishda foydalanish mumkinligi dalillangan;

fan va san'at konseptli aforizmlar ingliz va o'zbek tillaridagi qiyosiy-chog'ishtirma tahlili amalga oshirilgan;

aforizmlarning o'ziga xos xususiyatlari madaniyatlararo muloqot jarayonida foydalanilishi va o'rganilishida ishonchli manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, obyektga yondashuv hamda qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar leksik-semantik, chog'ishtirma, tasniflash, tavsiflash, lingvomadaniy, statistik, komponent tahlil metodlari bilan asoslanganligi, shuningdek, xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar bilan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tilshunoslikning yangi yo'nalishlari, xususan, lingvokulturologiyaning nazariy asoslarini o'rganishda, milliy matnlarga xos xususiyatlarni tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritishda, lingvomadaniy tadqiqot usullaridan foydalanishda, tadqiq manbalarini aniqlashda, fan va san'at mazmunli aforizmlarning lingvokulturologik qiymatini belgilashda ko'rinadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida "Lingvokulturologiya", "Leksikologiya", "Qiyosiy tipologiya" fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishda, ushbu fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlar olib borishda, magistratura bosqichida "Lingvistik tadqiqot metodlari", "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolari" kabi yo'nalishlarda maxsus kurslarni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at konseptli aforizmlarning semantikasi va struktur tadqiqi tahlili yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tilshunosligida aforizmlarning maqol va matallardan farqli jihatlari mualliflik xarakteriga ega bo'lishi, muayyan shaxsning ilmiy, falsafiy yoki estetik qarashlarini ixcham shaklda ifodalashi bilan ajralib turishi bilan birga, aforizmlar, maqollar kabi umumlashgan hayotiy tajribani ifodalashi, matallar singari obrazli va ko'chma ma'noga ega ekanligi aniqlanganlik to'g'risidagi mulohazalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarga mo'ljallangan AM-F3-201908172 "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi nomli amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 17-sentyabrdagi 01/4-4264-son ma'lumotnomasi). Natijada ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at mazmunli aforizmlarning farqli va o'xshash tomonlari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at leksikasi asosida shakllangan aforizmlar ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, ular semantik, lingvomadaniy va sintaktik jihatdan murakkab tizimni tashkil etishi, aforizmlarning shakliy tuzilishi va mazmuniy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifasi inson bilimini, estetik qarashlarini va hayotiy tajribasini qisqa, lo'nda hamda ta'sirchan shaklda ifodalaniishi isbotlanganlik to'g'risidagi mulohazalardan Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga

mo'ljallangan PF-201912258 "O'zbek adabiyotining ko'p tili (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" nomli amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 24-sentyabrdagi 01/4-4428-son ma'lumotnomasi). Natijada Innovatsion tadqiqot loyihasi asosida o'qituvchi va til o'rganuvchilarda kerakli kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha bilimni oshirish shuningdek, fan va san'at leksemasini aforizmlarda yoritish tadqiqiga lingvomadaniy yondashuvni qo'llash, hikmatli so'zlarni ingliz tilidan boshqa tillarga tarjima qilishda turli ekspressiv-stilistik vositalardan foydalanish hamda aforizmlarni yoritish mexanizmini qo'llash maqsadida yaratilgan uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda, Oliy ta'lim muassasasida o'tiladigan frazeologiya, paremiologiya, leksikologiya va tarjimaga doir fanlarning mavzu doirasini boyitish hamda ularni mukammallashtirishda foydalanilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at leksikasi asosida shakllangan aforizmlar ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, ular semantik, lingvomadaniy va sintaktik jihatdan murakkab tizimni tashkil etishi, aforizmlarning shakliy tuzilishi va mazmuniy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifasi inson bilimni, estetik qarashlarini va hayotiy tajribasini qisqa, lo'nda hamda ta'sirchan shaklda ifodalanishi isbotlanganlik ilmiy xulosalaridan "O'zbekiston" telekanalining 2025-yil yanvar-aprel oylari davomida efirga uzatilgan "Assalom, O'zbekiston!", "Ko'ngil obodligi" ko'rsatuvlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24 ijodiy birlashmasi" davlat muassasasining 2025-yil 3-iyundagi 05-09-818-son ma'lumotnomasi) Natijada ingliz va o'zbek tillarida fan va san'at leksikasining tarixiy-tadrijiy rivojlanish tushunchalarining mazmunini ilmiy adabiyotlar tahlili orqali ochib berish; chog'ishtirilayotgan tillarda fan va san'at konseptli hikmatli so'zlarning semantik maydonini aniqlash; fan va san'at konseptli aforizmlarni chog'ishtirish orqali ularning tuzilish jihatdan farqli va o'xshash tomonlarini ochib berishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola jumladan, 4 ta respublika miqyosidagi va 3 ta xalqaro bazalar ro'yxatiga kirgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 132 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va

predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning **“Paremiologik birliklarni o'rganishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida jahon, ingliz va o'zbek tilshunoslarining paremiologik birliklar ustida olib borgan ilmiy izlanishlari o'rganilgan hamda ular yangi nazariy fikrlar bilan boyitilgan. Olib borilayotgan qiyosiy tadqiqotlarda turli xalq maqol va matallaridagi lingvistik birliklar tillararo aloqa sohalarini tadqiq qilish bilan bog'liq holda zamonaviy tilshunos olimlarning e'tiborini tortmoqda, bu esa fanda turli xalqlarning hayot tarzi, madaniyati, tarixi, ruhiyatining o'xshash hamda farqli jihatlarini o'rganish imkonini yaratadi. Tilning paremiologik tarkibini bilish o'sha til egasi bo'lgan millat mentalitetini yaxshiroq va chuqurroq tushunishga yo'l ochadi. Paremlar tilning milliy xususiyatlarini, uning o'ziga xosligini ifodalaydi, shuningdek, xalqning boy tarixiy tajribasini o'zida mujassam etgani holda insonlarning mehnat faoliyati, hayoti va madaniyati bilan bog'liq qirralarini ifodalaydi. Paremlarni o'rganish tilni o'zlashtirishda, nutq madaniyatini oshirishda zarur bo'g'in hisoblanadi. O'zbekiston xalq shoiri E.V.Vohidov tomonidan “hikmatli so'zlar – hech bir podsho e'lon qilmagan farmon, hech bir prezident muhrlamagan qonun ⁵” deb ta'riflangan aforizmlarning shakllanish tarixi har bir xalqning madaniyati va uzoq asrlik o'tmishiga borib taqalishi bilan bog'liq bo'lishi bilan birga, ushbu birliklarni o'rganish o'zbek va ingliz tillarining leksik fondini boyitishdagi muhim manbalardan sanaladi.

Xorijiy manbalardan olingan ta'riflar aforizm tushunchasini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi hamda uning qo'shimcha xususiyatlarini ham o'zida aks ettiradi. “Aforizm - umumiy haqiqatni ifodalash uchun mo'ljallangan qisqa aqlli so'z”⁶. “Aforizm - umumiy haqiqatni yoki zukko kuzatuvni o'zida mujassam etgan qisqa so'z”⁷. “Aforizm - ta'limot yoki muayyan tamoyilning yoki umume'tirof etilgan haqiqatning esda qolarli shaklda taqdim etilgan qisqacha ifodasi”⁸. “Aforizm - umumiy haqiqatni o'z ichiga olgan qisqa mushohada. Yana bir ta'rifga ko'ra, ilmiy prinsipning qisqacha bayoni, odatda klassik muallif tomonidan taqdim etiladi. Mashxur faylasuf, shoir Robert Maknish (Robert Macnish)ning “Book of aphorisms” nomli kitobida hikmatli so'z bu-muallifi aniq bo'lgan dono fikrli insonlarni ezgulikkka davat etuvchi hikmatli gap deb, ta'rif berilgan. Shuningdek, ushbu kitobda uch minga yaqin aforizmlar jamlangan⁹. Keyingi 40-50 yillar davomida esa hikmatli so'zlar (aforizmlar)ning lisoniy tabiatini tadqiq etish bilan tilshunoslar ham shug'ullana boshladilar. O'zbek tilshunosligida hikmatli so'zlar (aforizmlar)ni lingvistik nuqtayi nazaridan o'rganishga bag'ishlangan qator ishlarning yaratilishi buning yorqin dalili bo'la

⁵ Ш.Шомақсудов, Ш.Шорахмедов. Маънолар маҳзани. – Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – Б. 7.

⁶ <http://popular.academic.ru/293/aforizm>

⁷ <http://www.dictionary.com/browse/aphorism>

⁸ <https://www.britannica.com/art/aphorism>

⁹ Robert M. Book of aphorisms. Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – P.8.

oladi¹⁰.

Shu bilan birga, paremiologiya sohasida juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan bo‘lishiga qaramay olimlar va tadqiqotchilar o‘rtasida aforizm va ularga yondosh hodisalarga nisbatan berilgan ta’riflar munozarali bo‘lib qolmoqda. Xorijda aforizmlar adabiyotga emas, balki fanga, xususan, falsafaga tegishli degan nazariyaning tarafdorlari ko‘plab topiladi. Aforizmlar, albatta, adabiy janr hisoblanishi kerak, ammo ular fanga yaqin va bu ularning bizning davrimizda mashhur bo‘lishiga yordam beradi¹¹. Shuni ta’kidlash kerakki, aforizm muhim va qadimiy fan bo‘lsa-da u haqidagi nazariy fikrlar juda noaniqdir. “Aforizm” tushunchasining o‘zi noaniq ta’riflangan va shu sababli uning turlicha tushunilishi kuzatiladi. Olimlar tomonidan taklif qilingan aforizmning juda ko‘p ta’riflari mavjud bo‘lib, ayrimlarning tushunishida aforizm qisqa obrazli shaklda chuqur, ibratli fikr sifatida namoyon bo‘ladi. Yana boshqa olimlarning ta’kidlashicha, aforizm murakkab uslubdagi paradoksal hukm bo‘lib, o‘ziga xoslikka tortiladi. Quyidagi jadvalda berilgan aforizm va maqol orqali ushbu paremalardagi farqni kuzatishimiz mumkin. Unda fan va san’at konseptiga oid bir qator aforizm va maqollar tahlil qilingan bo‘lib, turli manbalardan olingan¹².

¹⁰ Bu haqda qarang: Паремология Узбекистана (библиография). Выпуск 1. Составители: А.М.Бушуй и др. – Самарканд, 1978; Выпуск II. –Самарканд, 1980; Выпуск III. – Самарканд, 1981.

¹¹ Шаталова С.А. Лингвистические основы афоризмов и афористики в художественных текстах Достоевского на материале романов «Бесы» и «Подросток»: дис...канд. филол. н. [Текст] /С.А. Шаталова - М., 2000. – С 7.

¹² Каюмов А., Ҳаққулов А. Ҳикматлар. Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – 256 б.; Раимов А., Раимова Н. Ҳикматлар шодаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. – 400 б.; Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. – Тошкент: “Наврўз”, 2018. – 76 б.; Акбаров М. Немис мутафаккирларининг ҳикматлари афоризм [Матн]: Афоризм. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 224 б.; Алишер Н. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар.Сано-стандарт нашриёти, Тошкент 2016. – 519. б.; Жўраев С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 400 б.; Азаматов М. “Ҳикматлар ҳазинаси”. – Тошкент: Ёш гвардия,1977. – 234 б.; John Cross. The Oxford Book of Aphorisms. Oxford University Press, Walton Street,1983. – 383 p.; John A. A Book of Aphorisms. London, 2017. – 127 p.; Robert M. Book of aphorisms. Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – 189 p.; The Collected Works of Abraham Lincoln. The Abraham Lincoln Association. 2006. – 3356 p.; Elizabeth Knowles. The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford University Press. 2014. – 1168 p. Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.; Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома (ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати). - Тошкент, 1990. - 528 б.; Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.; Бердиёров Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремнологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.; Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Ш.Тожибоев, Р.Эгамбердиев – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Краткость – душа остроумия. Английские пословицы, поговорки, крылатые выражения: Л.Васильева. – М.: ЗАО Центрполиграф, 2006. – 350 с.; Қисқача ўзбекча-русча мақол-маталлар луғати / Тузувчи: М.Содиқова Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 76 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. Том 1. – Тошкент, «Фан», 1987. – 368 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2томлик]. Масъул муҳаррирлар: Т.Мирзаев, Б.Саримсоқов. Том 2. – Тошкент: Фан, 1988. – 372 б.; Ўзбек халқ мақоллари: Тўпловчилар Т. Мирзаев, Б.Саримсоқов, А. Мусоқулов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 512 б.; Ўзбек халқ мақоллари /Тузувчилар: Т. Мирзаев, А.Мусоқулов, Б.Саримсоқов – Тошкент: «Шарқ», 2005. – 253 б.; Ўзбек халқ мақолларининг қисқача синонимик луғати. Тузувчи: Жўраева Б. М. – Тошкент: Фан, 2006. – 96 б.; A complete collection of English proverbs by John Ray published by Forgotten books. London, Dalton house, 60 Windsor Avenue, 2013. – 319 p.; A Dictionary of American Proverbs Wolfgang Mieder first published. – Oxford University Press, 1992. – 710 p.; English proverbs and proverbial phrases a historical dictionary by G. L. Apperson. Published by London: Dent, 1929. – 729 p.; Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Oxford University Press, 2003. – 364 p.; Proverbs-мақоллар-пословицы//Тузувчилар. М.М. Кароматова, Ҳ.С. Кароматов. Тошкент: Меҳнат, 2000. – 400 б.; English dictionary of proverbs and sayings. Alexander Margulis and Asya Kholodnaya. Jefferson, North Carolina, 1974. – 494 p.;The Oxford Concise Dictionary of Proverbs. John Simpson and Jennifer Speake. Third Edition, Oxford University Press, 1998. – 364 p.; The Oxford Dictionary of


Aforizm va maqollarning farqi tahlillar asosida

Aphorism	Hikmatli soʻzlar	Proverb	Maqol
“An Investment in knowledge pays the best interest” [Benjamin Franklin]	Har kim birovga qozgʻay choh, tushgay ul choh uzra oʻzi nogox A. Navoiy.	“A little education is a dangerous thing	Bilmas tabib jon olar
The man who removes a mountain begins by carrying away small stones. [William Faulkner]	Oz demak xikmatga bois, oz yemak sihatga bois A. Navoiy.	Choose a book as you choose a friend	Takrorlash oʻqishning onasidir.

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan misollardan kelib chiqqan holda, ikki birlikka quyidagicha taʼrif berish mumkin: Maqollar – halq ogʻzaki ijodining elementi boʻlsa, aforizm adabiy tilga taʼluqli boʻlib, asosan yozma koʻrinishda ifoda etiladi, maqolning muallifi noaniq boʻlsa, aforizmning muallifi aniq boʻladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Ingliz va oʻzbek tillarida fan va sanʼatga oid aforizmlarning semantik tahlili**” deb nomlangan. Bizning tadqiqotimizda esa subject/fan va art/sanʼat konseptual tizimi asosida quyidagi konseptlar aniqlandi:

Qarang.2.1- rasm



Qarang. 2.1 rasm. Fan va sanʼat leksemalarining konseptual tizimi

Ingliz va oʻzbek tilidagi fan va sanʼatga oid aforizmlar semantik maydon, konseptual guruh boʻyicha mikro maydonlarga ajratilganda ikki

Proverbs and Jennifer Speake, John Simpson Fifth Edition, Oxford University Press, 2007. – 625 p.; Нармуратов З.Р. Қискача икки тилли илм-маърифат паремиологик луғат. Тошкент: ADAST POLIGRAF, 2020. – 84 б.; Нармуратов З.Р., Сафармуратова М. Таълим, илм ҳикматлари. Термиз давлат университети, НММ нашриёти, Термиз, 2022, – 89 б.; Collis H. American English Idioms. Mc Graw Hill Education; second edition, 2007. – 1128 p.; Cowie A.P., Mackin R. Oxford Dictionary of Current Idiomatic English. — Vol. 2. Phrase, Clause and Sentence Idioms. – Oxford University Press, 1983. – 1876 p.

chog'ishtirilayotgan tillarda hosil bo'lgan maydon o'rtasida farq kuzatildi. Ushbu farqlar ikki tilning noqardosh til, ularning grammatik qurilishi, struktur tuzilishi kabi jihatlari bilan belgilanadi. Biz tomonimizdan fan va san'atga oid 600 dan ortiq ingliz tilidagi va 400 dan ortiq o'zbek tilidagi aforizmlar aniqlandi. Ilmiy ishning asosiy qismida ulardan san'at konseptli ingliz tilida 46ta, o'zbek tilida 22 ta, o'qituvchi konseptli ingliz tilida 17 ta, o'zbek tilida 15 ta, kitob konseptli ingliz tilida 17 ta, o'zbek tilida 14 ta, san'at leksikasi asosida shakllangan ingliz tilida 14, o'zbek tilida 12 ta, amaliy san'at leksikasi asosida shakllangan ingliz tilida 37 ta, o'zbek tilida 26ta, badiiy san'at leksikasi asosida shakllangan ingliz tilida 25 ta va o'zbek tilida 20 ta aforizmlar tahlil qilindi.

Qarang. 2.2-rasm.



2.2-rasm. Fan va san'atga oid aniqlangan aforizmlarning umumiy statistikasi.

Fan, bilim, ta'lim – jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida qaraladi. Shu sababli, har bir tilda ushbu konseptga oid aforizmlar mavjud bo'lib, ular orqali har bir xalqning ilimga bo'lgan munosabati namoyon bo'ladi. Tahlilga tortilgan subject/fan konseptli aforizmlar har bir xalq madaniy qadriyatlari, ilimga bo'lgan munosabati, va til estetikasi kabi muhim ma'lumot beradi. Ingliz tilida aforizmlar ko'proq motivatsion va individual yondashuvda bo'lsa, o'zbek tilida ular axloqiy-ruhiy tarbiyani ko'zda tutadi. Tahlilga tortilgan misollar turli manbalar¹³dan olindi. O'zbek tilida: *Ey o'g'il! Qaysi fan bo'lmasin, to uni mukammal egallamaguningcha harakatni to'xtatma, bir ilm ikkinchi ilmni egallashga yordam beradi.* – Abdibek Sheroziy; Ingliz tilida: *I study myself more than any other subject. That is my metaphysics, that is my physics [Men o'zimni boshqa fanlardan*

¹³ Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. – Тошкент: “Наврўз”, 2018. – 76 б.; Алишер Н. Ибратли ҳикоятлар ва ҳислатли ҳикматлар. Сано-стандарт нашриёти, Тошкент 2016. – 519. б.; Жўраев С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 400 б.; Азаматов М. “Ҳикматлар хазинаси”. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 234 б.; Jhon Cross. The Oxford Book of Aphorisms. Oxford University Press, Walton Street, 1983. – 383 p.; John A. A Book of Aphorisms. London, 2017. – 127 p.; Robert M. Book of aphorisms. Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – 189 p.; The Collected Works of Abraham Lincoln. The Abraham Lincoln Association. 2006. – 3356 p.; Elizabeth Knowles. The Oxford Dictionary of Quotations. Oxford University Press. 2014. – 1168 p. Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 288 б.; Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома (ўзбек халқ мақолларининг изоҳли луғати). - Тошкент, 1990. - 528 б.; Шомаксудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2001. – 448 б.

ko'ra ko'proq o'rganaman. Bu mening metafizikam, bu mening fizikam]. – Michel de Montaigne; O'zbek tilida: Emish har elg'a qadri ilm balo, O'la ilm maqomi baski bolo. Kishikim ilmu fandin boxabardur, Haloyiqqa mo'tabardur. Tiriklikda kishikim qilsa har kor, Aning osonlig'ina ilm darkor. – Abdulla Avloniy; Ingliz tilida: I am my own muse, the subject I know best (Men o'zimning ilhomim, men eng yaxshi biladigan mavzuman). – Frida Kahlo; O'zbek tilida: Ilm fan yo'llarida mash'aladir, Ilm ista, garchi shohi jahonsan. – Farididdin Attor;


Tahlil natijasida ta'kidlash joizki, ikki tilda tahlilga tortilgan misollardan ma'lumki, subject/fan ishtirok etgan aforizmlarda turlicha ma'zo - mazmun ifoda etilmoqda. Chunki bu asotirlarda o'ziga xos g'oya, mafkura yashiringan. Albatta, g'oyatda boy badiiy an'analar mahsuli hisoblangan xalq og'zaki ijodiyoti, ya'ni xalqimizning orzuistaklari, ezgu o'ylari, o'ziga xos turmush tarzi hamda axloqiy qarashlari mujassamlashgan. Shuning uchun ham hikmatli so'zlar, aforizmlar, matallar, urf-odat, an'ana va marosimlar xalqimizning ma'naviy qiyofasini ko'rsatuvchi ko'zgugina emas, balki milliy tarbiyaning muhim va qudratli vositalaridan biri hamdir. Chunki bizga ajdodlarimizdan meros bo'lib kelayotgan har, hikmatli so'z yoki rivoyatda xalqimizning o'ziga xos milliy qiyofasi, orzu-intilishlari, ezgu maqsadini ifodalovchi g'oyalar o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga aynan subject/fan semasi ishtirok etmagan bo'lsa ham uning konseptual tizimiga oid sema asosida shakllangan hukmatli so'zlar ham tahlilga tortildi. Masalan subject/fan konseptining → education/ta'lim, → science/ilm, → knowledge/bilim kabi semalar konseptual tizimini tashkil etadi. Bular esa hikmatli so'zlarni shaklanishida mantiqiy asos vazifasini bajaradi. Masalan, O'zbekcha: *Kishi ta'limdan topsa malomat, Topar ilm ahli oldingda hijolat.* – Alisher Navoiy; Ingliz tilida: *There is no education like adversity* (Qiyinchiliksiz ta'lim yo'q). – Benjamin Disraeli; O'zbek tilida: *Yigitlikda yig' ilmning maxzani, Qarilik chog'i harj qilg'il ani.* – Alisher Navoiy; Ingliz tilida: *Science is facts; just as houses are made of stones, so is science made of facts; but a pile of stones is not a house and a collection of facts is not necessarily science* (Ilm - bu fakt; uylar toshdan yasalganidek, ilm ham faktlardan iborat; ammo tosh uyumi uy emas va faktlar to'plami ilm bo'lishi shart emas). – Jules Henri Poincare; O'zbek tilida: *Agar inson ilm nuri bilan uz yulini yoritmasa, zulmat va nodonlik ko'chasida qoladi.* – Abdibek Sheroziy; Ingliz tilida: *If we succeed in giving the love of learning, the learning itself is sure to follow* (Agar biz o'rganishga bo'lgan muhabbatni berishda muvaffaqiyat qozonsak, o'rganishning o'zi albatta ergashadi). – Sir John Lubbock.

Ingliz tilidagi book tushunchasi o'zbekcha kitob leksemasi orqali ifoda etiladi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"ga ko'ra kitob arabcha so'z bo'lib, yozilgan, muqovalangan asar: 1. Ma'lum matnli varaqlardan iborat, juzlab tikilgan muqovalangan hajmi 48 sahifadan kam bo'lmagan bosma (qadim qo'lyozma ham) asar; 2. Umuman ma'lum shaxs voqea hodisaga va boshqalarga oid tugal, odatda nashr etishga, kitob bo'lishga mo'ljallangan asar. O'zbek tilida: *Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik*

yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilmu hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham: "Kitob aql qal'asidir", deganlar. – Muhammad Jabal Rudi; Ingliz tilida: *One glance at a book and you hear the voice of another person, perhaps someone dead for 1,000 years. To read is to voyage through time* (Kitobga bir nazar tashlasangiz, boshqa odamning ovozi eshitiladi, ehtimol 1000 yil davomida o'lgan kimdir. O'qish - vaqt bo'ylab sayohat qilish). – Carl Sagan;

O'zbek va ingliz tillaridagi subject/fan konseptli aforizmlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur aforizmlar ta'lim, ilm-fan va bilish jarayoniga oid ijtimoiy-madaniy qarashlarni aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi. Ular insonning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, ilmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni hamda aqliy kamolotga erishishdagi ahamiyatini umumlashtirilgan va obrazli shaklda ifodalaydi. Ingliz tilidagi subject/fan konseptli aforizmlarda ilmiy tafakkur, ratsionallik, tajriba va amaliy bilimning ustuvorligi yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek tilidagi aforizmlarda esa ilm-ma'rifatning axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unligi, ustoz-shogird an'analari hamda bilimning inson kamolotidagi o'rni ko'proq ta'kidlanadi. Bu holat har ikki xalqning milliy dunyoqarashi va madaniy qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuningdek, aforizmlarda fan konsepti ko'pincha nur, kalit, xazina, yo'l, qurol kabi metaforik obrazlar orqali ifodalanadi. Bunday metaforalar bilimning inson hayotidagi yo'naltiruvchi va taraqqiy ettiruvchi funksiyasini ochib beradi. O'zbek va ingliz aforizmlarida ilmning cheksizligi, bilim olish jarayonining uzluksizligi hamda insonning intellektual rivojlanishiga xizmat qilishi umumiy semantik xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek tillarida ilm konsepti bilan bog'liq aforizmlar xalq tafakkuri, qadriyatlari va mentalitetining mahsulidir. Ingliz tilida ilm kuch, yutuq va manfaat manbai sifatida talqin qilinsa, o'zbek tilida ilm ma'naviy yuksaklik, axloqiy yetuklik va nurli hayot yo'li sifatida ifodalanadi. Bu esa ikki xalqning ilmga nisbatan yondashuvini va madaniy ustuvorliklarini ochib beradi.

Qarang. 2.3-rasm.



2.3-rasm. Ingliz va o'zbek tillarida aniqlangan aforizmlarning tematik guruhlar bo'yicha umumiy statistikasi.

San'at — ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shakli hisoblanib, u qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida mehnat jarayoni bilan, kishilar ijtimoiy faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda vujudga kela boshlagan. Biz tahlilga tortgan fan va san'at konseptli aforizmlarning mavzuviy maydonlarida farq kuzatildi buning sababi ikki etnosning qarashlari, milliy mentaliteti kabi madaniy birliklar bilan izohlanadi. Buning yaqqol dalilini berilgan misollarda ham kuzatish mumkin. O'zbek tilida: *Ilmni egallab olish bir san'atdir.* – Abdibek Sheroziy; Inglizcha: *The art of teaching is the art of assisting discovery* (O'qitish san'ati - bu kashfiyotga yordam berish san'ati). – Mark Van Doren, American poet; Ingliz tilida: *The purpose of art is washing the dust of daily life off our souls* (San'atdan maqsad kundalik hayotning changini qalbimizdan yuvishdir). – Pablo Picasso; O'zbek tilida: *Har bir ilm va san'atning borib taqaladigan boshlanish joyi bor. Shu boshlanish joyga yaqinlashgan sari, to o'ziga borib yetguncha soddalashib boradi.* – Abu Rayhon Beruniy; Ingliz tilida: *Art is whatever you choose to frame* (San'at - bu siz ramka uchun tanlagan narsangiz). – Fleur Adcock; Ingliz tilida: *I was digging in the backyard to get my own clay and making pottery. And then I started taking pictures and built my own darkroom. I would go out at six in the morning and just take pictures*¹⁴ (O'zim loy olish uchun hovlida yer qazib, kulolchilik qilardim. Va keyin men suratga olishni boshladim va o'zimning qorong'i xonamni qurdim. Ertalab soat oltida tashqariga chiqib, shunchaki suratga olardim). – Steven Klein. Har bir xalqning o'ziga xos milliy an'analari, qadriyatlari va urf-odatlar bo'lgani kabi, hunarmandchiligi ham uning bebaho madaniy meroslaridan biridir. Hunar – bu faqatgina qo'lda yasalgan mahsulot emas, balki ko'ngildan chiqqan, sabr-toqat, mehr va san'at bilan uyg'unlashgan mehnat mahsulidir. O'zbek xalqining ming yillik tarixida zardo'zlik, kulollik, do'ppido'zlik, kashtachilik, temirchilik kabi ko'plab hunarlar rivoj topgan. Bu hunarlar avloddan-avlodga o'tib, o'zining betakror maktabini yaratgan. Xususan, Buxoro, Xiva, Samarqand, Marg'ilon kabi qadimiy shaharlarda hunarmandchilikning o'ziga xos maktablari vujudga kelgan.

Bugungi kunda hunarmandchilik nafaqat milliy o'zligimizni ifoda etuvchi vosita, balki iqtisodiyotni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, yoshlarni kasbga yo'naltirishda muhim o'rin tutmoqda. Davlatimiz tomonidan hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash, ularga subsidiya va kreditlar ajratish, xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishlari uchun imkoniyat yaratish – bu sohaning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Yana xalqimizda Hunarli odam – elda hurmatli, degan hikmat bor. Bu shunchaki so'z emas, balki hayotiy haqiqatdir. Hunar egasi doim hurmat topadi, uni jamiyat qadrlaydi. Chunki hunar – bu mehnat, halollik va mahoratning timsolidir. Tahlil natijasida quyidagi sohaga oid aforizmlar uchradi. O'zbek tilida: *Usta bo'lish — faqat asbobni ushlash emas, yurak bilan ishlashdir.* – Tohir Malik; *Har bir zarb — ustaning imzosidir.* – Erkin Vohidov. O'zbek xalqining boy madaniy merosi haqida so'z borganda, kulolchilik san'atini alohida tilga olish lozim. Bu hunar qadim zamonlardan buyon xalqimiz orasida rivojlanib kelayotgan, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan nozik san'at turlaridan biridir.

¹⁴ https://www.brainyquote.com/quotes/steven_klein_661571?src=t_pottery

Kulolchilik nafaqat zaruriy idish-tovoqlarni yasash, balki san'at, did, sabr va mahoratning uyg'unlashgan ko'rinishidir. Kulollar yaratgan har bir buyumda xalq ruhi, madaniyati, tarixiy xotirasi mujassam. Shuning uchun ham kulolchilikni asrash, rivojlantirish, yoshlarga o'rgatish – milliy merosimizni asrash demakdir. Tahlil natijasida quyidagi sohaga oid aforizmlar uchradi. O'zbek tilida: *Kulol loyni gapirtirar, zargar tilla bilan so'zlar.* – Xalq hikmati; *Kulolchilik — sabr va mehnatning sinovidir.* – Muhammad Yusuf; *Har bir sopol idish — ustaning yuragidan o'tgan izdir.* – Esanov Yodgor [Termiz shahridan yozib olindi];

Xalq orasida Zargar qo'lida temir ham zar bo'ladi degan naql bejiz aytilmagan. Chunki zargar oddiy metall, tosh yoki tilla parchasiga nafislik baxsh etadi. Uning mehnati ko'z bilan emas, yurak bilan his etiladi. Bu ishda sabr, aniqlik, hushyorlik va did eng muhim fazilat hisoblanadi. Zargarlik nafaqat go'zallik yaratish, balki moddiy va ma'naviy boylikni saqlashning bir yo'li hamdir. Ayniqsa, milliy bayram va marosimlarda zargarlik buyumlarining alohida o'rni bor. Ular nafaqat bezak sifatida, balki avlodlar orasida boy meros sifatida ham qadrlanadi. Bizning tadqiqotimizda quyidagi sohaga oid aforizmlar uchradi. O'zbek tilida: *Zargar qo'lida tosh so'zlaydi, yurak esa kuy chaladi.* – Yangiboyev Turdi (Termiz shahridan yozib olindi); *Zar toshini yaltiratadi, zargar esa uni jonlantiradi.* – Uralova Oysuluv; *Zargarlik ko'zi toshda, yuragi esa san'atda.* – Erkin Vohidov; *Zargar qo'lida tosh so'zlaydi, yurak esa kuy chaladi.* – O'tkir Hoshimov;


O'zbek ayollari qadimdan buyon to'y liboslari, yostiq jildlari, to'nlar, ro'mol va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini kashtalab bezashgan. Bizning tadqiqotimizda quyidagi aforizmlar uchradi. O'zbek tilida: *Kashtachining ignasi yurakning tilidir.* – Sattorova oynaxol [Boysun tumanidan yozib olindi]; *Kashta tikkan qo'l — yurakdan chiqqan ohangdir.* – Shomurod Nosirov; *Kashtachilik — bu mehr bilan chizilgan san'at.* – Zulfiya; Tadqiqot va tahlil natijasiga ko'ra quyidagi haykaltaroshlik leksemasi asosida shakllangan aforizmlar – uchramadi. Ingliz tilida painting/rasm chizish leksikasi asosida shakllangan quyidagi aforizmlar uchradi. Ingliz tilida: *Painting is easy when you don't know how, but very difficult when you do.* – Edgar Degas; *If you could say it in words, there would be no reason to paint.* – Edward Hopper; *Painting is the silence of thought and the music of sight.* – Orhan Pamuk; *Painting is just another way of keeping a diary.* – Pablo Picasso; *Every good painter paints what he is.* – Jackson Pollock; *I dream my painting and I paint my dream.* – Vincent van Gogh; *To be an artist is to believe in life.* – Henry Moore; Ingliz tilida drawing/rasm chizish leksikasi asosida shakllangan aforizmlar quyidagi aforizmlar uchradi. Ingliz tilida: *Drawing is the artist's most direct and spontaneous expression, a species of writing: it reveals, better than does painting, his true personality.* – Edgar Degas;

Ingliz tilida crafts/hunarmandchilik leksikasi asosida shakllangan quyidagi aforizmlar uchradi. Ingliz tilida: *Without craftsmanship, inspiration is a mere reed shaken in the wind.* – Johannes Brahms; *Skill without imagination is craftsmanship and gives us many useful objects such as wickerwork picnic baskets. Imagination without skill gives us modern art.* – Tom Stoppard; Ingliz tilida: *Literature is the most agreeable way of ignoring life.* – Fernando Pessoa; O'zbek tilida: *Adabiyot —*

bu hayotning badiiy talqinidir. – Abdulla Qahhor; Ingliz tilida: *The purpose of literature is to turn blood into ink.* – T.S. Eliot; O‘zbek tilida: *So‘z — bu qurol.* *Yaxshi qo‘lda u qalbni davolaydi, yomon qo‘lda esa u o‘ldiradi.* – Cho‘lpon; Ingliz tilida: *A writer is someone for whom writing is more difficult than it is for other people.* – Thomas Mann; O‘zbek tilida *Adabiyot va yozuv, Musiqa, Tasviriy san‘at, Teatr, Musiqa Kino san‘ati haqida quyidagi aforizmlar uchradi. Yozuvchi — jamiyatning qalb zarbini his qiluvchi yurakdir.* – Chingiz Aytmatov; *San‘at — bu xalqning yuragidan chiqib, yana yuragiga yo‘l oladigan mo‘jizadir.* – Abdulla Qodiriy. Ingliz tilida tadqiqot natijasida sohaga oid quyidagi aforizmlar uchradi.

Ingliz va o‘zbek tillarida badiiy san‘atga oid aforizmlar har ikki tilning madaniy, estetik va falsafiy yondashuvlarini namoyon etadi. Ingliz tilida san‘at – shaxsiy izlanish va ruhiy ozodlik timsoli bo‘lsa, o‘zbek tilida u – millat ruhi, mehnatsevarlik, sabr va madaniyatni targ‘ib etuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Bu tafovutlar ikki xalqning san‘atga bo‘lgan yondashuvi va qadriyatlar tizimining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Fan va san‘at leksikasi asosida shakllangan aforizmlarning sintaktik-struktur qurilishi”** deb nomlangan. Sintaksisga so‘z birikmasi, gap, gap birikishi strukturasini o‘rganuvchi lingvistika fanining qismi sifatida ta’rif berish bir tarafdin morfologiyadan, ikkinchi tarafdin grammatik stilistikadan farqlashga olib keldi. Buning sababi morfologiya so‘zlarning shakli va qo‘llanishini o‘rgansa, grammatik stilistika strukturani ifodalash maqsadida qo‘llash bilan shug‘ullanadi. Bizningcha: Morfologiya va sintaksisni aniq farqlash zarur, chunki morfologiya formalarning ma’no nazariyasi sifatida ta’riflanadi, sintaksis esa, gap va uning bo‘laklari nazariyasi deb tushuniladi. Demak, morfologiya kelishiklarni, so‘zlarni, so‘z yasallishini o‘rgansa, sintaksis farqli ravishda so‘z birikmasi gaplar va ularning birikishi, gaplar tahlili bilan shug‘ullanadi. Biz ea tadqiqotimizda aforizmlarni sintaktik jihatdan tahlilga tortdik. Olib borilgan izlanishlar natijasida sodda yoyiq gap shaklidagi ingliz tilida 11 ta, o‘zbek tilida 20 ta, to‘liq gap shaklidagi ingliz tilida 61 ta, o‘zbek tilida 18 ta, uyushiq bo‘lakli gap shaklidagi ingliz tilida 13 ta, o‘zbek tilida 12 ta, qo‘shma gap shaklidagi ingliz tilida 13 ta o‘zbek tilida 11 tadan ortiq aforizmlar aniqlandi va tahlil qilindi.



3.1-rasm. Aforizmlarning gap strukturasi va sintaktik qurilishiga ko‘ra umumiy statistikasi

Bosh bo‘laklardan tashqari gap tarkibida ikkinchi darajali bo‘laklar ishtirok etadigan aforizmlar sodda yoyiq gap shakliga egadir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi misollarga murojaat qilamiz. Ingliz tilida: *I am my own muse, the subject I know best* (Men o‘zimning ilhomim, men eng yaxshi biladigan mavzuman). – Frida Kahlo; O‘zbek tilida: *Ilm – obi hayotdir kashfi asror.* – Mirzo Abdulqodir Bedil; Ingliz tilida: *Language is only the instrument of science, and words are but the signs of ideas* (Til faqat ilm quroli, so‘zlar yesa g‘oyalarning belgisidir). – Samuel Johnson; O‘zbek tilida: *Hunarga egilmagan bosh, boshqaga egilar* –Yusuf Xos Hojib;

Ingliz va o‘zbek tillarida gaplar o‘zining strukturasida gap bo‘laklarining to‘liq bo‘lishi yoki biror (bir necha) bo‘laklarning sintaktik qurilmada ishtirok etmaganligi, “tushib qolganligi”ga qarab complete sentence/to‘liq gap va incomplete sentence/to‘liqsiz gaplarga bo‘linadi. To‘plangan hikmatli so‘zlarning asosiy qismini complete sentence/to‘liq gap shaklidagi aforizmlar tashkil etadi. Ingliz tilida: *I study myself more than any other subject. That is my metaphysics, that is my physics* (Men o‘zimni boshqa fanlardan ko‘ra ko‘proq o‘rganaman. Bu mening metafizikam, bu mening fizikam). – Michel de Montaigne; O‘zbek tilida: *Usta bo‘lish — faqat asbobni ushlash emas, yurak bilan ishlashdir.* – Tohir Malik. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillaridagi fan, ta‘lim, o‘qituvchi, talaba, kitob, ilm, bilim hamda san‘at konseptlariga oid aforizmlarning aksariyati sintaktik jihatdan complete sentence (to‘liq gap) shaklida ifodalanadi. Buning asosiy sababi aforizmlarning muayyan hayotiy tajriba, falsafiy qarash yoki axloqiy xulosani yakunlangan fikr sifatida yetkazishga xizmat qilishidir. To‘liq gap shaklidagi aforizmlar mazmunning aniqligi, mantiqiy tugallanganligi va kommunikativ mustaqilligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilidagi aforizmlarda darak, buyruq va nasihat mazmunidagi to‘liq gaplar ustun ekanligini ko‘rsatdi. Ular ko‘pincha ilm-fan, ta‘lim, o‘qituvchilik, kitobxonlik va bilimning ahamiyatini ta‘kidlashga xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi aforizmlarda esa pand-nasihat, ma‘rifatparvarlik va axloqiy-didaktik mazmun kuchliroq namoyon bo‘lib, ular milliy qadriyatlar, ustoz-shogird an‘analari va hunar egallash g‘oyalari bilan chambarchas bog‘langan.

Har ikki tilda aforizmlarning sintaktik qurilishi o‘xshash bo‘lsa-da, ularning mazmuniy yo‘nalishida ayrim farqlar mavjudligi aniqlandi. Ingliz aforizmlarida individual tafakkur, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va bilimning universalligi ko‘proq aks etsa, o‘zbek aforizmlarida ilm va hunarni odob-axloq, ustozga hurmat hamda komil inson tarbiyasi bilan bog‘lash tendensiyasi ustunlik qiladi.

Shuningdek, ayrim aforizmlar incomplete sentence (to‘liqsiz gap) shaklida uchrashi kuzatildi. Bunday birliklarda ma‘no qisqa va lo‘nda ifodalanib, ekspressivlik hamda ta‘sirchanlik kuchaytiriladi. To‘liqsiz gap shakli aforizmning ixchamligi va esda saqlanish darajasini oshiruvchi muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Complete sentence va incomplete sentence shaklidagi aforizmlar ingliz va o‘zbek xalqlarining ilm, ta‘lim, kitobxonlik, ustozlik va san‘at haqidagi lingvomadaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim paremiologik birliklar hisoblanadi. Ularning sintaktik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish ikki tilning nafaqat grammatik, balki kognitiv va madaniy o‘ziga xos jihatlarini ham ochib

berishga xizmat qiladi.

Gap tarkibida bir xil sintaktik vazifani bajarib, o'zaro teng bog'lanish munosabatiga kirishuvchi bo'laklar uyushuq bo'laklar deb ataladi. Bunday aforizmlarda uyushiq ega, kesim, to'ldiruvchi yoki aniqlovchilar vositasida bir-biri bilan mazmunan bog'liq tushunchalar ketma-ket sanaladi va natijada fikrning ta'sirchanligi hamda estetik qiymati ortadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi fan konseptli aforizmlar tarkibida uchraydigan uyushuq bo'lakli gaplar qiyosiy jihatdan tahlil qilinib, ularning sintaktik tuzilishi, semantik xususiyatlari hamda lingvopragmatik vazifalari yoritiladi. Bu esa aforizmlarning mazmuniy teranligini ta'minlovchi sintaktik vositalarni aniqlash va ikki tilning paremiologik birliklaridagi umumiy hamda o'ziga xos jihatlarni belgilash imkonini beradi. Ingliz tilida: *Language is only the instrument of science and words are but the signs of ideas* (Til faqat ilm quroli, so'zlar yesa g'oyalarning belgisidir). – Samuel Johnson; Ingliz tilida: *He who has imagination without learning has wings and no feet* (Ilmsiz tasavvurga ega bo'lganning qanoti bor, oyog'i yo'q). – Joseph Joubert. O'zbek tilida: *Dunyoning turgan-bitgani ortiqchadir, lekin, besh narsa bundam mustasno - non, suv, kiyim, uy va foydali ilm.* – Abul Xasan Siriy; O'zbek tilida: *Avval olim o'z ruhini haqiqatni ko'rishga xalal beruvchi turli illatlardan tozalashi zarur. Negaki, yomon odatlar, tarafkashlik, rakobat, tuban extirolarga qul bo'lish, hokimiyat talashish va shu illatlar ko'pchilikni buzadi, odamlarni xaqiqatdan ko'z yumishga olib keladi.* – Abu Rayxon Beruniy.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz va o'zbek tillaridagi aforizmlarda uyushuq bo'lakli gaplar muhim sintaktik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday gaplar aforizm mazmunini kengaytirish, bir-biri bilan bog'liq tushunchalarni umumlashtirish hamda fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Uyushuq bo'laklar orqali muallif bir necha predmet, hodisa, sifat yoki harakatlarni yagona semantik maydonda birlashtirib, aforizmning mazmuniy zichligini kuchaytiradi. Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyasiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan konstruksiyalar qo'shma gapni tashkil etadi. "Bog'langan qo'shma gaplar bog'lovchisiz qo'shma gaplardan farqlanib, yopiq konstruksiyalarni tashkil etadi. Bog'langan qo'shma gaplar ikki qismdan tarkib topadi. Bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro aloqasi orqali quyidagi mazmun munosabatlari ifodalanadi¹⁵.

1. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlar. Ingliz tilida: *Science is what you know. Art is what you feel* (Fan – bu sen biladigan narsa. San'at – bu sen his qiladigan narsa). – Scott Adams; *Science is the language of the brain, art is the language of the heart* (Fan bu miya tilidir, san'at esa yurak tilidir). – Stella Adler; *Art is the tree of life. Science is the tree of death* (San'at – bu hayot daraxti. Fan – bu o'lim daraxti). – William Blake; *Science can explain the world, but only art can make us feel its beauty* (Fan olamni tushuntira oladi, ammo faqat san'at uning go'zalligini his qildira oladi). – Charles Percy. Bu turkumdagi tahlilga tortilgan o'zbek xalq aforizmlarining qismlari asosan

¹⁵ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис [Масъул муҳаррирлар: Ғ.А.Абдурахмонов ва бошқ.]. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.333.

bo'lsa, esa bog'lovchilari yordamida bog'lanadi va bu xildagi qo'shma gap qismlarining tuzilishida ma'lum parallelizm kuzatiladi: *Vatanni tark etmok xazil ish emas, Bu ish uchun har kim tob beravermas! Judolik daraxtdir bargi yo'k. yolgiz, Bargi bo'lsa hamki, ammo mevasiz. Bugun ayrilikdan yuragim giryon, Aziz yerni qo'ldan chiqarib hayron.* – Xoja Samandar Termiziy; *Odam ersang ma'ni bil dona-dona, Vatan erur senga ikkinchi ona.* – Anvar Otin kabi hikmatli so'zlar shular jumlasidandi.

2. Biriktiruv munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlar. Ingliz tilida biriktiruv (addition) munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlarda subject/fan (fan) va art/san'at haqida fikrlar va, ham, nafaqat... balki... ham kabi biriktiruvchi bog'lovchilar yordamida hosil bo'ladi. *Science is not only a discipline of reason, but, also, one of romance* (Fan nafaqat mantiq ilmi, balki romantikaga ham boydir). – Stephen Hawking; *Fan ham, san'at ham jamiyat taraqqiyotining ikkita muhim ustunidir.* – Shavkat Mirziyoyev.

3. Ayiruv munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlar. Ingliz tilida: *either write something worth reading, or do something worth writing.* – Benjamin Franklin; *Yo o'rganishni davom ettirasan, yo rivojlanishdan ortda qolasan.* – O.P.Uralova (yo bog'lovchisi bilan); *Goh rassom tabiatni tasvirlaydi, goh tabiat rassomga ilhom beradi.* – Sh.Q.Qayumova (Goh bog'lovchisi bilan)

4. Sabab va natija munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlar. Ingliz tilida: *Knowledge is of no value unless you put it into practice; therefore, learning finds its meaning in action.* (Bilim amalda qo'llanmasa qadsizdir; shuning uchun o'rganish o'z ma'nosini faoliyatda topadi). – Anton Chekhov; *Art washes away from the soul the dust of everyday life; therefore, it renews the human spirit.* – Pablo Picasso.

Tahlil etilgan o'zbek aforizmlari orasida ham bog'lovchisi shakldagi paremiyalar uchradi. O'zbek tilida: *Olimlar tinimsiz izlanadi, natijada yangi kashfiyotlar yuzaga keladi.* – A.E.Xudoyqulov; *She'riyat inson tafakkurini boyitadi, shuning uchun ma'naviyat yuksaladi.* – P.U.Bakirov.

5. Izohlash munosabatini ifodalovchi bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlar. Ingliz tilida: *Knowledge is a person's greatest wealth; that is, no one can take it away.* – Benjamin Franklin; *Science seeks the truth; in other words, it tries to explain the cause of every phenomenon.* – Albert Einstein; *Music is the voice of emotions; in other words, it speaks directly to the heart.* – Victor Hugo; *Poetry is the mirror of the soul; that is, it reflects inner feelings.* – William Wordsworth. Bu guruhdagi o'zbek paremiyalarida qismlarni birlashtirish uchun ham bog'lovchisi qo'llaniladi: *Fan haqiqatni izlaydi, boshqacha aytganda, u noma'lum narsalarni oydinlashtiradi.* – A.Mengboyev; *Musiqa yurakning ovozidir, ya'ni u so'zsiz ham ma'no anglatadi.* – I.Xolboyeva.

Fan va san'at konseptlariga oid izohlash munosabatli bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlarda ikkinchi predikativ qism birinchi qism mazmunini sharhlash, aniqlashtirish va kengaytirish vazifasini bajaradi. O'zbek tilida bu

munosabat ya'ni, demak, boshqacha aytganda, ingliz tilida esa that is, namely, in other words kabi vositalar orqali ifodalanadi.

XULOSA

1. Paremiologiya adabiyotshunoslar va tilshunoslar shug'ullanadigan tarmoq hisoblanadi. Chunki, paremalarning aksariyati ko'pincha she'riy shaklga o'xshaydi va ularda o'xshatish, antiteza, anafora, alliteratsiya, kinoya, piching kabi bir qancha tasviriy vositalar qo'llanadi. Shu qatorida paremalar so'zlardan tuzilib, ma'lum bir fikrni ifodalovchi gaplardan iborat bo'lgani uchun tilshunoslikning ham o'rganish ob'ekti hisoblanadi.

2. Tilshunoslikda paremiologik birliklar tadqiqi nafaqat ularning shakli va mazmuniy xususiyatlarini aniqlash, balki xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlari, tarixiy tajribasi va madaniy tafakkurini o'rganishga ham xizmat qilishi asoslandi. Paremiologik birliklarning semantik tuzilishi, obrazlilik darajasi, umumlashgan ma'no ifodalashi hamda nutq jarayonidagi pragmatik vazifalari ularni tilning alohida qatlamlaridan biri sifatida tadqiq etishni taqozo etadi.

3. Ingliz va o'zbek tilshunosligida aforizmlar tadqiqi tahlili natijasida ushbu birliklarning maqol va matallardan farqli jihatlari aniqlandi. Aforizm mualliflik xarakteriga ega bo'lishi, muayyan shaxsning ilmiy, falsafiy yoki estetik qarashlarini ixcham shaklda ifodalashi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, aforizmlar maqollar kabi umumlashgan hayotiy tajribani ifodalashi, matallar singari obrazli va ko'chma ma'noga ega bo'lishi mumkin.

4. Aforizmning maqol va matalga munosabatini o'rganish jarayonida ularning umumiy va farqli xususiyatlari belgilandi. Jumladan, maqol va matallar ko'proq xalq ijodi mahsuli sifatida namoyon bo'lsa, aforizmlar ko'pincha mualliflik tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Biroq uchala birlik ham qisqalik, mazmuniy teranlik, didaktik yo'nalish va obrazlilik kabi umumiy belgilar asosida o'zaro yaqinlashadi.

5. Aforizmlarning semantik maydonini o'rganish natijasida fan konseptiga oid birliklarda bilim, ilm, tajriba, tadqiqot, ustoz, talaba, kitob, tafakkur, haqiqat, kashfiyot kabi semantik komponentlar faol ishtirok etishi aniqlandi. Ushbu birliklar insonning intellektual rivoji, ilmiy izlanishi va ma'naviy kamolotini aks ettiradi.

6. Teacher/o'qituvchi va student/talaba konseptlari asosida shakllangan aforizmlarda ustozning bilim beruvchi, yo'l ko'rsatuvchi, tarbiyachi sifatidagi funksiyasi hamda talabaning izlanish, o'rganish va rivojlanishga intilishi ifodalangan. Ingliz va o'zbek tillaridagi bunday aforizmlar ta'lim jarayonining ijtimoiy-madaniy ahamiyatini aks ettiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

7. Book/kitob konseptli aforizmlar tahlili shuni ko'rsatdiki, kitob ikki xalq lingvomadaniyatida ham bilim manbai, ma'naviy boylik, tafakkur rivoji va inson kamolotining asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi.

8. San'at konseptiga oid aforizmlarda esa ijod, go'zallik, musiqa, rang-tasvir, adabiyot, estetik zavq, ilhom, tuyg'u kabi semantik belgilar ustunlik qiladi. Visual arts/amaliy san'at va Literary arts/badiiy san'at yo'nalishidagi aforizmlar

tahlili natijasida san'at insonning ichki dunyosi, hissiy tajribasi va jamiyatning ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi vosita ekanligi aniqlandi.

9. Ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'atga oid aforizmlarda umumiy universal tushunchalar mavjudligini, biroq ularning ifodalanishida milliy-madaniy xususiyatlar namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Xususan, o'zbek aforizmlarida ma'naviyat, odob, ustozga hurmat kabi qadriyatlar ko'proq aks etsa, ingliz aforizmlarida individual tajriba, erkin fikrlash, ijodkorlik va shaxsiy rivojlanish tushunchalari faolroq ifodalanadi.

10. Aforizmlarning gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarga mosligi tahlil qilinganda, ular asosan darak, buyruq-istak va so'roq gap shakllarida uchrase aniqlandi. Darak gap shaklidagi aforizmlar ilmiy yoki falsafiy xulosalarni ifodalashga xizmat qilsa, buyruq-istak gap shaklidagi aforizmlar tarbiyaviy va motivatsion xususiyat kasb etadi.

11. Sodda gap shaklidagi aforizmlar tahlili natijasida ularning yig'iq va yoyiq, to'liq va to'liqsiz, uyushiq bo'lakli gap shakllarida keng qo'llanishi aniqlandi. Yig'iq gap shaklidagi aforizmlar fikrning qisqaligi va lo'ndaligini ta'minlasa, yoyiq gap shaklidagi aforizmlar murakkabroq konseptual mazmunni ifodalash imkonini beradi. Uyushiq bo'lakli gap shaklidagi aforizmlarda esa semantik parallelizm, taqqoslash va ta'sirchanlik kuchli namoyon bo'ladi.

12. Qo'shma gap shaklidagi aforizmlar tahlili ularning struktur jihatdan bog'langan qo'shma gap va bog'lovchisiz qo'shma gap shakllarida faol ishlatilishini ko'rsatdi. Bog'langan qo'shma gap shaklidagi aforizmlarda sabab-natija, izohlash, ayiruv va qarama-qarshilik munosabatlari turli bog'lovchilar yordamida ifodalangan. Masalan, fan konseptiga oid aforizmlarda bilim va tajriba o'rtasidagi munosabat, san'at konseptiga oid aforizmlarda esa ijod va estetik ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik aks etadi.

13. Bog'lovchisiz qo'shma gap shaklidagi aforizmlar esa fikrning ixchamligi, kuchli intonatsiya va semantik zichligi bilan ajralib turadi. Bunday tuzilmalarda qismlar o'rtasidagi munosabat tinch belgilari va mazmuniy yaqinlik orqali yuzaga keladi. Ushbu sintaktik shakl aforizmlarning qisqa, ammo chuqur mazmun ifodalash imkoniyatini oshiradi.

14. Ingliz va o'zbek tillaridagi fan va san'at leksikasi asosida shakllangan aforizmlar ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, ular semantik, lingvomadaniy va sintaktik jihatdan murakkab tizimni tashkil etadi. Aforizmlarning shakliy tuzilishi va mazmuniy xususiyatlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning asosiy vazifasi inson bilimini, estetik qarashlarini va hayotiy tajribasini qisqa, lo'nda hamda ta'sirchan shaklda ifodalashdan iboratdir. Tahlil natijasiga ko'ra aforizmlarning mavzuiy guruhlariga bo'yicha miqdori bir xil emasligi aniqlandi. O'zbek tilida fan va san'at mazmunli hikmatli so'zlarning miqdori ko'pligi kuzatiladi.

SCIENTIFIC COUNCIL PhD.03/27.12.2025.Fil.13.02
SCIENTIFIC DEGREES AT
TERMEZ UNIVERSITY OF ECONOMYCS AND SERVICE

DENOV INSTITUTE OF ENTREPRENEURSHIP AND PEDAGOGY

KUVVATOV RAHMATULLO HIKMATULLAYEVICH

**COMPARATIVE STUDY OF APHORISMS RELATED TO SCIENCE AND
ART (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)**

10.00.13—Comparative and Contrastive Linguistics

DISSERTATION ABSTRACT
for the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

The theme of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Supreme Attestation Commission under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under registration number №B2026.1.PhD/Fil7147

The doctoral thesis has been carried out at Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy. The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, Russian, English (resume)) has been placed on the webpage of the Scientific Council at www.tues.uz and on the web-site of educational portal «Ziyonet» www.ziyonet.uz.

Scientific supervisor:

Muratxodjayeva Feruzaxon Xotamovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,
Associate Professor

Official opponents:

Bakirov Poyon Uralovich

Doctor of Philological Sciences (DSc), professor

Jabborov Sherzod Xalikulovich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological
sciences, Associate Professor

Leading organization:

Namangan State University

The dissertation defense will be held on " 30 " 08 2026 at 11 00 at the meeting of the Scientific Council PhD.03/27.12.2025.Fil.13.02 at Termez University of economics and service (Address: 190111, Termez, "Ibn Sino" street, 38-B Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of Termez University of economics and service, (registration number 10). Address: 190111, Termez, "Ibn Sino" street, 38-B Tel.: (55) 452 77 77; e-mail: university.tues.uz)

The dissertation abstract is distributed on " 17 " 08 2026.

(Mailing report № 10 on " 17 " 08 2026).



O.P.Uralova

Chairperson of the Scientific Council awarding
scientific degrees, Doctor of Science in Philology,
Associate professor

Z.R.Narmuratov

Scientific Secretary of the Scientific Council
awarding scientific degrees, Doctor of Science in
Philology, Professor

N.X.Mamataliyeva

Chairperson of the Scientific Seminar under
Scientific Council awarding scientific degrees,
Doctor of Science in Philology, Associate professor

INTRODUCTION (thesis annotation)

The relevance and necessity of the dissertation thesis. The absence of a single universally recognized and comprehensive approach to paremiological units in world linguistics continues to provoke ongoing debate and encourages the study of their characteristic features. In particular, research devoted to studying proverbs in connection with social life, especially contemporary science and art, is of significant importance.

Research is being conducted in world linguistics on studying the linguistic features of wise sayings and the factors of their formation from a linguocultural perspective. In particular, special attention is being given to the development of scientifically grounded conceptions aimed at providing a scientific-theoretical substantiation of aphorisms formed on the basis of science and art, which reflect the worldview, customs, and traditions of a particular nation, elucidating them from a semantic-structural standpoint, and resolving problems that arise through the identification of their equivalents in non-related languages.

To date, there is an insufficient number of works devoted to the linguistic status of aphorisms in Uzbek linguistics. More specifically, wise sayings have been only partially studied in Uzbek linguistics thus far. Nevertheless, in Uzbek paremiology, there is a need for semantic-structural research in the comparative study of our great values with non-related languages, which are “a symbol of national identity and independent statehood for our people, an invaluable spiritual treasure, and a great value that has been occupying an extremely important place in the political-social, spiritual-educational development of our country”.¹⁶ In particular, the study of aphorisms formed on the basis of science and art lexicon in English and Uzbek languages holds its own significance among the issues facing Uzbek and English linguists.

This dissertation research serves to a certain extent in the implementation of the tasks set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan: No. PF-60 dated January 28, 2022 “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026,” No. PF-5847 dated October 8, 2019 “On the Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030,” No. PF-6108 dated November 6, 2020 “On Measures for the Development of Education, Upbringing, and Science in the New Period of Development of Uzbekistan,” the Resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: No. 610 dated August 11, 2017 “On Measures to Improve the Quality of Teaching Foreign Languages in Educational Institutions,” No. PQ-3775 dated June 5, 2018 “On Additional Measures to Improve the Quality of Education in Higher Education Institutions and Ensure Their Active Participation in the Comprehensive Reforms Being Carried Out in the Country,” No. PQ-5117 dated May 19, 2021 “On Measures to Bring the Activity of Popularizing the Learning of Foreign Languages in the Republic of Uzbekistan to a Qualitatively New Stage,” and other regulatory legal documents.

¹⁶ <https://uza.uz> Prezident Shavkat Mirziyoevning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi// “O‘zbekiston ovozi” gazetasi. 21.10.2019.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic.

The research was carried out in accordance with the priority direction of the development of science and technology of the Republic: 1. “Formation of a system of innovative ideas and ways to implement them in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an information society and a democratic state”.

The level of study of the problem. In world linguistics, the scientific research works of scholars such as V.A. Avrorin, O.A. Dmitrieva, Y.V. Zemlyanskaya, L. Wang, T.M. Kizlargul, T.V. Sazbandyan, N.G. Dyadk, Y.S. Konovalova, A.V. Eremenko, E.Y. Niktovenko¹⁷ on the semantic and linguistic nature of aphorisms, their stylistic features, as well as their comparative study with cognate aphorisms in other languages, have brought the work in this direction to a new stage.

In English linguistics, scholars such as M. Robert, Jakob Kets, Robert Farley, A. Taylor, Auden and K. Lous, A. John, William Lilly¹⁸ have studied aphorisms as paremiological units.

In Uzbek linguistics, scientific research works devoted to various issues of paremiology, such as the stages of formation of aphorisms, their linguistic nature, their relation to adjacent phenomena, and research methods, have been carried out in the scientific works of scholars such as M. Fozilov, T. Mirzayev, B. Sarimsoqov, Z.D. Toshpulatov, P.U. Bakirov, K.H. Tursunov, M.Kh. Saidov, Z.T. Tokhirov, A. Raimov, N. Raimova, Sh. Nosirov, S. Jurayev, N. Toshqulov, Sh. Tojiboyev, R. Egamberdiyev, Z.I. Mirzayunusova, L.V. Polovina, O.P. Uralova, Z.R. Narmuratov, N. Mamataliyeva.¹⁹

¹⁷ Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка. – Л.: Наука, 1975. – 58с.; Дмитриева О.А. Культурно – языковые характеристики пословиц и афоризмов на материале французского и русского языков; дисс. ...канд. филол. наук. – Волгоград, 1997. – 189 с.; Землянская Е.В. Структурно-семантические и функциональные особенности стилиевой интертекстуальности в англоязычном афоризме: дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2004. – 209 с.; Ван Л. Композиционно-синтаксическая организация русских афоризмов второй половины XIX века: дисс. ...канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2005. – 157 с.; Кизларгуль Т.М. Русские антиномичные афоризмы: рече-языковые аспекты конфликтности и парадоксальности: дисс. ...доктор филологических наук. – Краснодар, 2007. – 415 с.; Сазбандян Т.В. Функции афоризмов в структуре и динамике познавательной деятельности человека. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 143 с.; Дядык Н.Г. Гносеологический анализ афоризма как специфической семиотической системы: дисс. ...канд. филол. наук. – Челябинск, 2011. – 189 с.; Коновалова Ю.С. Фразеологизмы, паремии и афоризмы как средство объективации возрастных концептов в англоамериканской языковой картине мира: дисс. ...канд. филол. наук. – Воронеж, 2011. – 321 с.; Еременко А.В. Языковая Объективация Цениостного Компонента Концепта Marriage в Афоризмах Американских И Британских Авторы (Сравнительно-Сопоставительный Аспект): дисс. ...канд. филол. наук. – Владивосток, 2012. – 221.; Никтовенко Е.Ю. Семантика конфликт содержащих паремий и афоризмов в лингвокогнитивном и лингвокультурном аспектах (на материале русского и английского языков): дисс. ...канд. филол. наук. Нальчик, 2015. – 185 с.

¹⁸ Robert M. Book of aphorisms. Glasgow, W.R. McPhun, 1834. – 189 p.; Jacob Cats and Robert Farlie Moral Emblems with aphorisms, adages, and proverbs, of all ages and nations. London: longman, green, longman, and roberts, 1860. – 262 p.; Taylor A. Selected Writings on proverbs. Helsinki: Suomalainen Tiedeakatemia, 1975. – 130 p.; Auden and Louis K. The viking book of aphorisms. London, The Viking Press, 1981. – 417 p.; John A. A Book of Aphorisms. London, 2017. – 127 p.; William Lilly. Choice aphorisms from the seven segments of cardan” published by Global Grey, 2018. – 336 p.

¹⁹ Ҳикматли сўзлар, афоризмлар ва мақоллар. Тузувчи: М.Фозилов. – Тошкент: Ўзбекистон, 1967. – 191 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 1. – Тошкент, “Фан”, 1987. – 368 б.; Ўзбек халқ мақоллари: [2 томлик]. Масъул муҳаррирлар: Мирзаев Т., Саримсоқов Б. Том 2. – Тошкент, “Фан”, 1988. – 372 б.; Саидов М.Х., Тоҳиров З.Т. Комиллик ўғитлари. – Тошкент: Молия

The connection of the research to the research plans of the higher education or research institution where the dissertation was completed. The dissertation topic is a component part of the prospective scientific research work plan being carried out at the Department of Foreign Languages and Literature (lower courses) of the Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy on the topic "Actual problems of comparative typological study of the lexical-semantic system of language: diachrony and synchrony" (SRA-12-09-2019).

The aim of the research is to identify the semantic and structural features of aphorisms formed on the basis of science and art lexicon in English and Uzbek languages.

The objectives of the work:

- to study wise sayings as paremiological units and to substantiate on a scientific-theoretical basis their relation to adjacent units;
- to reveal the content of the concepts of historical-gradual development of science and art lexicon in the English and Uzbek languages through the analysis of scientific literature;
- to identify the semantic field of wise sayings with the concept of science and art in the compared languages;
- to reveal the structural similarities and differences of aphorisms with the concept of science and art through their comparative analysis.

The object of the research is wise sayings with the concept of science and art in the English and Uzbek languages.

The subject of the research. The semantic-structural features of aphorisms with the concept of science and art in the English and Uzbek languages constitute the subject of the research.

Research methods. Lexical-semantic, comparative-contrastive, classificatory, structural and statistical, and analytical methods were used in elucidating the research topic.

The scientific novelty of the study is as follows:

- as a result of the analysis of aphorism research in English and Uzbek linguistics, it has been determined that these units differ from proverbs and sayings by possessing an authorial character and expressing the scientific, philosophical, or

нашриёти, 2003. – 96 б.; Тошпўлатов З.Д. Афоризмларнинг жанр хусусиятлари ва бадиияти. Филол. фанлари номзоди дисс. Тошкент, 2006. – 122 с.; Бакиров П. Номинацентрические пословицы в разносистемных языках (на материале русского, узбекского и казахского языков): Дис... докт. филол. наук. – Ташкент, 2007. – 286 с.; Х.Турсунов “Французча-ўзбекча афоризмлар лугати. Наманган: 2014. – 45 б.; А.Раимов ва Н.Раимова. “Ҳикматлар шодаси” Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013. – 400 б.; Носиров Ш. Афоризмлар. – Тошкент: “Камалак”, 2015, 48 б.; Жўраев С. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф.–Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – 400 б.; Тошқулов Н. “Ҳикмат ва мақолларда одоб меваси” Тошкент, Адабиёт учкуни, 2017. – 48 б.; Илм ҳикмати (Илм ҳақидаги ҳадис, мақол ва ҳикматли сўзлар тўплами) Тузувчилар: Тожибоев Ш., Эгамбердиев Р. – Тошкент: Наврўз, 2018. – 76 б.; Мирзаюнусова З.И., Половина Л.В. Талаба-ёшларда меҳнатсеварлик туйғуларини шакллантиришда афоризмлардан фойдаланиш. 2019. – 68 б.; Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида "оила" бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.; Нармуратов З.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида таълим ва илм концептларига оид паремаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол.фанлари фалсафа доктори дисс. Термиз, 2022. – 129 б.; Нармуратов З.Р. Таълим, илм ҳикматлари. Термиз давлат университети, НММ нашриёти, Термиз - 2022, – 89 б.; Mamataliyeva N.X. Ingliz va o'zbek tillarida “vatan” mazmunli aforizmlarning semantikasi va strukturasi. Filol.fanlari falsafa doktori diss. – Termiz, 2023. – 128 b.

aesthetic views of a particular individual in a concise form, while at the same time, aphorisms, like proverbs, express generalized life experience and, like sayings, possess figurative and metaphorical meaning;

- it has been proven that in Uzbek aphorisms, values such as spirituality, morality, and respect for the teacher are more prominently reflected, whereas in English aphorisms, concepts of individual experience, free thinking, creativity, and personal development are more actively expressed;

- as a result of the analysis of aphorisms in the form of simple sentences, it has been substantiated that they are widely used in contracted and extended, complete and incomplete, and compound-member sentence forms, and that aphorisms in contracted sentence form ensure brevity and conciseness of thought, aphorisms in extended sentence form provide the possibility of expressing more complex conceptual content, while in aphorisms in the form of sentences with homogeneous members, semantic parallelism, comparison, and expressiveness are strongly manifested;

- it has been proven that aphorisms formed on the basis of science and art lexicon in the English and Uzbek languages constitute a multifaceted linguistic phenomenon, forming a complex system from semantic, linguocultural, and syntactic perspectives, and that the formal structure and content features of aphorisms are organically interconnected, with their main function being the expression of human knowledge, aesthetic views, and life experience in a brief, concise, and expressive form.

The practical results of the study are as follows:

- it has been substantiated that the comparative analysis of the semantics and linguocultural aspects and distinctive features of aphorisms with the concept of science and art in the English and Uzbek languages is of scientific-theoretical significance and contributes to the improvement of textbooks and manuals created for such disciplines as “Linguistics”, “Lexicology”, “Stylistics”, “Theory and Practice of Translation,” “Comparative Typology,” and “Linguoculturology”;

- it has been proven that the methodology developed for analyzing the semantics and linguoculture of aphorisms with the concept of science and art in the English and Uzbek languages can be used in the study of other types of paroemias characteristic of related and non-related languages;

- a comparative-contrastive analysis of aphorisms with the concept of science and art in the English and Uzbek languages has been carried out;

- it has been substantiated that the distinctive features of aphorisms serve as a reliable source in the process of their use and study in intercultural communication.

The reliability of the research results is explained by the precise formulation of the problem, the grounding of theoretical data on scientific sources, the conformity of selected sources to the subject of the research, the approach to the object, and the correspondence of the applied methods to the aim of the research, the substantiation of theoretical ideas and conclusions by lexical-semantic, comparative, classificatory, descriptive, linguocultural, statistical, and component analysis methods, as well as the implementation of conclusions,

proposals, and recommendations into practice, and the validation of the obtained results by competent organizations.

Scientific significance of the research results. The scientific significance of the research results is manifested in studying the theoretical foundations of new directions of linguistics, in particular linguoculturology, in elucidating the significance of investigating the characteristic features inherent in national texts, in utilizing linguocultural research methods, in identifying research sources, and in determining the linguoculturological value of aphorisms with the content of science and art. The ideas and considerations presented in the dissertation serve as a scientific source in elucidating the linguocultural features of English and Uzbek paroemias with the concept of science and art.

The practical significance of the research results can be used in the higher education system in creating textbooks and manuals for the disciplines of “Linguoculturology”, “Lexicology,” and “Comparative Typology”, in conducting theoretical and practical classes in these disciplines, and in organizing special courses at the master's degree level in such directions as “Methods of Linguistic Research” and “Actual Problems of Modern Linguistics”.

Application of research results. On the basis of the scientific results obtained from the analysis of the semantic and structural study of aphorisms with the concept of science and art in the English and Uzbek languages:

